

BOSHLANG'ICH SINIF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sotvoldiyeva Muxlisaxon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi, ya'ni dars davomida o'quvchilarni dars jarayoniga turli didaktik o'yinlar yordamida jalb qilishning bir necha usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'yinli texnologiyalar, "Kim so'z topadi" o'yini, "So'z top" o'yini, "So'zlar zanjiri" o'yini, "Palindrom" o'yini.*

Respublikamizning xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifasi har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va o'qituvchilar ommasidan o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o'ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo'lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir. O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Psixologlarning aniqlashicha bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi.

Dars jarayonida ko'proq pedagogik texnologiyaning **o'yin texnologiyalari** turidan foydalaniladi. Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida aktyor emas, balki "rejissyor" bo'lishi zarur. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik bilan qarashlarini tashkil etish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish, shuningdek zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi yangi ta'lim usullari va metodlarini bilishi, dars jarayonida ulardan samarali foydalanishi maqsadga muvofiq. 2023-yil ham bejizga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanmagan.

Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nima uchun kerak? Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarrda tutadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri bo'lgan o'yinli texnologiyalar – ta'lim oluvchilarni

faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metod. O'yinli texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash:

“Kim so‘z topadi?” o‘yini

Bu o‘yin o‘quvchilar yoki guruhlar asosida o‘tkazilishi mumkin. Sinfdagi o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadilar. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi.



Yozuvdagi o‘yinda har bir guruh so‘zlar topishadi. 1-guruh **kim?, nima?** so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni, 2-guruh **qanday?, qanaqa?** so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni, 3-guruh **nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?** so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topishlari kerak bo‘ladi. Bunda guruhlar so‘zlarning oxirgi harfiga so‘z topishadi.

O‘YINNING 2- VARIANTI

O‘quvchilarga matn beriladi. Shu matn ichidan 1-guruh **kim?, nima?** so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni, 2-guruh **qanday?, qanaqa?** so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni, 3-guruh **nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?** so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni topib yozishlari kerak bo‘ladi. Namuna:

“Navbatda turishni bilasizmi” mavzusi (2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 104-105-betlar):

Oshxonami yo nonga,
Borsang bozor, do‘konga.
Navbatingni kut, bolam,
Toqatsiz bo‘lma, Hamdam!

Teatrimi, kinomi,
Avtobus yo metromi,
Navbatingni kut doim,
Deydilar oyijonim.

Kimda tartib, yo‘q toqat,
Dakki eshitar faqat.

Xudbinlikdan bo'l yiroq,
Hurmat topasan, o'rtoq!
Dilshod Rajab

1-guruh

Oshxona, non,
bozor, do'kon,
navbat, bola,
Hamdam, teatr,
kini, avtobus,
tartib, metro,
toqat oyijonim,
xudbinlik,

2-guruh

Toqatsiz

3-guruh

Borsang,
kut, bo'lma,
deydilar,
eshitar,
yiroq bo'l,
hurmat

Bu o'yinda o'qituvchi foydalanishi mumkin bo'lgan bo'g'inglarni doskaga ilib qo'yadi.

-ma, -mon, -me, -mo, -
mo'

O'quvchilarga shu bo'g'inglarni ishtirok ettirib, yangi **kim?**, **nima?** so'roqlariga javbob bo'lgan so'zlarni tuzish topshirig'i beriladi. To'g'ri va ko'p so'z tuzgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bu o'yinni guruh bo'lib o'ynasa ham bo'ladi.

O'quvchilar topishi mumkin bo'lgan so'zlar:

-ma

Malika, mashina, olma, tabriknoma, mahorat, ...

-me

Kamera, meva, mebel, medal, ...

-mo

Xurmo, momo, avtomobil, moviy, ...

-mo'

Mo'tabar, mo'jiza, mo'jaz, ...

-mon

Osmon, kamon, zamon, tomon, ...

“SO‘ZLAR ZANJIRI” O‘YINI

Ushbu o‘yinni boshlang‘ich sinflarning hammasida o‘tkazish mumkin. U o‘quvchilarning har bir so‘zga, uning tuzilish tomoniga e‘tibor berilishini taqozo etadi. O‘yinni o‘tkazish uchun **kim?, nima?** so‘roqlariga javob bo‘lgan istalgan bir so‘z olinadi. Tanlangan so‘z qaysi tovush bilan tugasa keyingi so‘z **kim?, nima?** so‘roqlariga javob bo‘ladigan, o‘sha tovush bilan boshlanadigan bo‘lishi zarur. O‘quvchilar kerakli so‘zni tez topishadi va o‘z ijodlarining natijasini birdan ko‘ra oladilar. Bu ularga o‘zgacha zavq beradi. O‘yin qiziqarli bo‘lishi uchun bir qator o‘quvchilar yoki alohida guruhlar o‘rtasida o‘tkazilsa yanada yaxshi bo‘ladi.

Bahor, Robiya, alla, anor, randa, arra, asal, lola, archa, apelsin, Navoiy, yong‘oq, qop, paxta, ananas, somsa, ayiq, qo‘l, lochin, nina, ...

So‘zlar zanjiri o‘yinini aniq mavzularda ham o‘tkazish mumkin. Fikrlash faoliyati rivojlangan va so‘z zahirasi boy bo‘lgan o‘quvchilar orasida bunday o‘yinlarni o‘tkazsa bo‘ladi. Ayrim sinflarda to‘rt-besh faol o‘quvchi bo‘lsa ham ushbu o‘yin turini o‘tkazish imkoniyati bo‘ladi. Dastlabki o‘yinlarda bir guruh o‘quvchilar qatnashishsada, keying mashg‘ulotlarda ularning safi kengayib boradi. Boshqa o‘quvchilar ham ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirib oladilar. O‘yinni boshqa so‘z turkumlariga bog‘lab ham o‘tkazish mumkin. O‘quvchilar bu o‘yinni bajarish bilan ma‘lum bir so‘z turkumi yuzasidan bilimlari ham mustahkamlanib boradi.

Qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar ishtirokida o‘yinni uyushtirish: oq, qora, a‘lochi, issiq, qizil, laziz, zolim, moviy, yorqin, nordon, nozik, ko‘k, ko‘kish, shirin, ...

Bu turdagi o‘yinlarni **ismlar, hayvonlar, harakat bildirgan so‘zlar, poliz ekinlari** singari mavzularda ham o‘tkazish mumkin. So‘zlar zanjiri o‘yini har bir so‘zga diqqat bilan qarashni, uning ma‘nosi va tashqi ko‘rinishiga alohida e‘tibor berishni talab qiladi.

O‘YINNING 2-VARIANTI

Ikki o‘quvchi bir vaqtning o‘zida doskaga chiqadi va birinchisi **kim?, nima?** so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlardan, ikkinchisi esa **qanday?, qanaqa?** so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlardan so‘z zanjiri tuzish o‘yinini o‘tkazadi. Qaysi o‘quvchi yozuvdan bir daqiqa to‘xtasa yengilgan sanaladi. Kim ko‘p so‘z topgan bo‘lsa g‘olib hisoblanadi. O‘yinning shartiga ko‘ra biror so‘z ham qaytarib yozilmaydi.

1-o‘quvchi: anjir, rubob, botir, ruchka, aka, anhor, ro‘mol, lola, ayiq, qop, ...

2-o‘quvchi: qizil, lola, anor, ruchka, ayiq, qop, paxta, anhor, randa, ananas, somsa, apelsin, ...

“PALINDROM” O‘YINI

Palindrom- chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga ham bir xil o‘qiladigan so‘zlar topish o‘yini hisoblanadi. Bu o‘yin qadimgi yunonistonda vujudga kelgan. U “Palindromos” so‘zidan olingan. Bizning tilimizga tarjima qilganda “teskari yuruvchi” degan mazmuni anglatadi. Bu o‘yinni hamma yoshdagi kishilar ham zavq bilan o‘ynashadi. Uzoq kuzatishlar natijasida ushbu o‘yinning eng qiziqarli shakli ikki guruh bo‘lib o‘tkazish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkazilganda bir bo'g'inli so'zlardan ko'proq foydalanishadi. Tilimizda bir, Ikki bo'g'inli so'zlar ko'p uchraydi. Uch bo'g'inli so'zlar ham bor. O'yinni ikki guruh o'rtasida musobaqa tarzida o'tkazish quyidagicha amalga oshiriladi. Har bir guruh ishtirokchilari xattaxtaga chiqib oldidan va orqasidan bir xil o'qiladigan, kim?, nima? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar yoki qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar yozishi va so'zlardagi harflar sonini ko'rsatishi talab qilinadi. O'yinning shartida guruhlarga beshta, o'nta, o'n beshtadan so'zni navbatma-navbat yozish talab qilinadi. O'quvchilarning tayyorgarligiga qarab istalgancha so'zlar sonini belgilash mumkin.

| I guruh | II guruh |
|----------------|-----------------|
| 1. non -3 | 1. tut -3 |
| 2. lol -3 | 2. bob -3 |
| 3. quduq -5 | 3. aka -3 |
| 4. alla- 4 | 4. arra -4 |
| 5. amma -4 | 5. katak -5 |
| 6. Aziza-5 | 6. qozoq -5 |
| 24 | 23 |

Ko'rinib turibdiki, o'yin davomida ikkala guruh ham oltitadan so'z yozdi. Birinchi guruhdagi bolalar yozgan so'zlardagi harflar soni 24 ta, ikkinchi guruh o'quvchilari yozgan oltita so'zda 23 ta harf ishlatildi. Demak, ikkinchi guruh o'quvchilari g'oliblikni qo'lga kiritdi.

O'quvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan so'zlar: **Non, aka, kek, bob, sas, lol, acha, mum, tut, amma, alla, arra, obbo, kiyik, kuchuk, qochoq, qozoq, Aziza, katak, quduq, kallak, tabobat aqiqa, Tashat (Toshmamat).**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf darslarini qiziqarli tashkil etish bilim o'zlashtirish jarayonidagi mashaqqatlarni osongina yengib o'tishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf darslari uzluksiz ta'lim tizimida bilimli yoshlarni tayyorlashdagi muhim davr hisoblanadi. Shu sababli doimiy ravishda amaliyotchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar metodist olimlar faoliyatining muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. Boshlang'ich sinf darslari asosan alifbe, ona tili va o'qish savodxonligi darslari shaklida amalga oshirilib, bunday darslarda analitik metod, sintetik metod, harfiy metod bilan birgalikda ta'limiy o'yinlardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kichik maktab yoshidagi bolalar hayoti va faoliyatida asosiy yetakchi o'rin tutadi. Ular har bir topshiriq yoki vazifani o'yin bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirishga harakat qiladilar. Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'yindan bolalar uchun yangi va murakkab bo'lgan ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish usuli sifatida foydalana oladilar. Ta'limiy o'yinlar boshlang'ich ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish bilan birga bolalarni aqlan va jismonan chiniqtirish vazifalarini ham o'taydi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishga doir metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar, ko'rgazmali qurollar tayyorlanishi va nashr etilishi hozirgi kun talablaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 1-sinf uchun mashq daftari / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
4. <https://m.facebook.com/uzedu/posts/2869642036644403?locale2=ne> NP
5. X. G'ulomova, T. G'afforova ona tili darslari 1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.
6. *Ona tili o'qitish metodikasi* K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. -T.: «NOSHIR», — 2009. 352 b
7. Abduqudusov O.A. "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari" Toshkent, 2011-yil.
8. T. G'afforova., E. Shodmonov., X. G'ulomova Ona tili. 1- sinf uchun darslik «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent - 2017
9. K.Qosimova., S.Fuzailov., A.Ne'matova Ona tili 2-sinf uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018
10. S. Fuzailov., M.Xudoyberganova., Sh.Yo'ldosheva Ona tili. 3- sinf uchun darslik "O'qituvchi" nashriyoti- matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2019
11. Internet saytlari : www.ziyo.uz , www.pedagog.uz
12. "Ona tili va o'qish savodxonligi" 2-sinf o'qituvchilari uchun darslik (1-qism Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova) Toshkent - 2021